

O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 313 887,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,2 %ga oshdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi¹	313 887,8	114,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 915,9	111,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	15 111,4	113,8
Buxoro	19 168,8	111,3
Jizzax	8 039,6	120,4
Qashqadaryo	17 659,5	110,8
Navoiy	16 192,6	106,8
Namangan	15 483,1	110,1
Samarqand	18 637,5	117,3
Surxondaryo	14 648,9	108,5
Sirdaryo	6 855,7	138,0
Toshkent	33 987,7	109,8
Farg'ona	19 157,0	117,5
Xorazm	14 020,9	114,0
Toshkent shahri	88 438,5	118,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi 69,7 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,5 %ga oshdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi yo'nalishi 20,7 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 31,1 %ga oshdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,6 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 37,6 %ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	52 371,7	22 606,4	7 982,8
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	115,4	136,5	111,9
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	85 309,2	42 311,9	22 237,2
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	104,1	128,4	149,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	81 039,1	29,5	-
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	106,5	66,5	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 82 960,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 20,1 %ga oshdi. Umumiy hajmdagi ulushi 1,3 % punktga ko'payib, 26,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 47,8 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,5 %ga oshib, 149 858,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,8 % (81 068,6 mlrd so'm) bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,5 %ga oshdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, %		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
O'zbekiston Respublikasi²	82 960,9	149 858,3	81 068,6	120,1	115,5	106,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 724,5	4 939,5	3 251,9	130,6	109,7	104,5
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 133,8	8 848,0	5 129,6	118,9	115,8	109,5
Buxoro	3 067,0	8 331,0	7 770,8	109,6	114,5	108,7
Jizzax	1 297,9	4 695,7	2 046,0	188,7	110,6	117,3
Qashqadaryo	5 195,3	7 040,0	5 424,2	118,6	108,4	106,9
Navoiy	6 308,9	4 622,3	5 261,4	110,0	105,6	104,0
Namangan	1 245,8	5 977,9	8 259,4	108,7	111,9	109,1
Samarqand	2 360,2	13 647,2	2 630,1	109,2	120,0	111,9
Surxondaryo	1 574,4	7 659,0	5 415,5	120,5	106,9	107,7
Sirdaryo	1 081,8	4 463,6	1 310,3	136,9	148,8	110,5
Toshkent	5 450,6	18 068,0	10 469,1	101,0	123,5	95,5
Farg'ona	3 230,1	9 442,9	6 484,0	111,9	122,5	113,7
Xorazm	1 328,5	4 823,2	7 869,2	118,2	112,5	114,2
Toshkent shahri	31 391,4	47 300,0	9 747,1	134,3	113,3	100,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax viloyatida (2024-yilning mos davriga nisbatan 188,7%), Sirdaryo viloyatida (136,9 %) hamda Toshkent shahrida (134,3 %) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumotlar uchun havolalar:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

D. Xidiraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil:

